



UDK:83.821.512.133

Sayyora LATIPOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:sayyoralatipova97@gmail.com

BuxDU professori G'.Murodov taqrizi asosida

PERSONALITY AND HISTORICAL REALITY OF OGUKHAN IN JORA FAZIL'S "THE THRESHOLD OF SEPARATION"

Annotation

This article discusses the role of historical works in the work of the famous writer Jora Fazil, the artistry of the novel, and the harmony of the events depicted in the work with historical reality. The significance and influence of historical works on the reader's life is analyzed. The simple language of the author's works, especially "The Threshold of Separation", ensures that readers of all ages can understand the work equally.

Key words: historical novel, artistic interpretation, image, hero, writer's skill, historical reality.

ЛИЧНОСТЬ И ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ ОГУЗХАНА В РАБОТЕ ЖОРЫ ФАЗИЛЯ «ПОРОГ РАЗДЕЛЕНИЯ»

Аннотация

В данной статье рассматривается роль исторических произведений в творчестве известного писателя Жоры Фазиля, художественность романа, гармония изображенных в произведении событий с исторической действительностью. Анализируется значение и влияние исторических произведений на жизнь читателя. Простой язык произведений автора, особенно «Порога разлуки», гарантирует одинаковое понимание произведения читателями всех возрастов.

Ключевые слова: исторический роман, художественная интерпретация, образ, герой, писательское мастерство, историческая реальность.

JO'RA FOZILNING "AYRILIQ OSTONASI" ASARIDA O'G'UZXON SHAXSI VA TARIXIY VOQELIK.

Annotatsiya

Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Jo'ra Fozil ijodida tarixiy asarlarning o'rni, romanning badiiyati, asarda aks ettirilgan voqealarning tarixiy haqiqat bilan uyg'unligi haqida fikr yuritiladi. Tarixiy asarlarning kitobxon hayotidagi ahamiyati, ta'sir qilish darajasi tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarining, xususan, "Ayriliq ostonasi" sodda tilda yaratilganligi barcha yoshdagi kitobxonlar asarni birdek tushunishlarini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, badiiy talqin, obraz, qahramon, yozuvchi mahorati, tarixiy voqelik.

Kirish. Nosirning tarixiy mavzuda yaratilgan asarlaridan biri "Ayriliq ostonasi" romani bo'lib, bu asarda adib qadimgi turkiy xalqlarning o'z erki, ozodligi, huquqi uchun mardonavor kurashini tasvirlagan. Mazkur romanda turkiy xalqlar tarixining eng shonli va ziddiyatli davrlaridan biri o'zining butun dramaturgiyasi bilan tasvirlanadi. Tarixdan ma'lumki, Mode xoqon (O'g'uzxon) o'zining 36 yillik xoqonlik davrida turkiy xalqlar uchun, saltanat taraqqiyoti va ravnaqi uchun katta ishlarni amalga oshirgan. U yashab o'tgan davrdan buyon o'tgan 2300 yil mobaynida turkiy xalqlar tarixi va adabiyotida, xususan, folklorida uning faoliyati va shaxsiyati to'g'risida ko'plab asarlar yaratildi. Botur Tangriqut nomi O'g'uzxon, O'g'uz xoqon adabiy personaji sifatida turkiy xalqlar, xususan, o'g'uzlar (g'uzlar) eposining bosh qahramonlaridan biriga aylangan. O'g'uzxon haqida yuz yillar davomida "O'g'uznoma" dostonlari yaratilgan. Taxminan 7-8-asrlarda og'zaki ravishda yaratilgan "Kitobi dadam Qo'rqu" ("Qo'rqu ota kitobi") dostonlarining birida O'g'uzxon haqida keltirilgan ma'lumotlar ham juda mashhurdir. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida yozib o'tgan. "O'g'uznoma"ning eng ko'p tarqalgan varianti tarixchi olim, Xiva xoni Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk" (1669) asarida saqlangan. Alloma Fitrat ham "O'g'uzxon" dramasi yozganligini ta'kidlab o'tish joiz[1].

Yuqoridagi ma'lumotlardan tashqari, yana O'g'uzxon haqida bir qancha asarlar yaratilgan. Xususan, Mirzo

Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", tarixnavis Rashiddin Fazlullohning "Jome at-tavorix", Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami", Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" nomli asarlari O'g'uzxonning shaxsiyati, faoliyatiga bag'ishlangan asarlardir.

"To'rt ulus tarixi" hamda "Shajarayi turk" asarlarida O'g'uzxonning musulmon ekanligiga ishoralar mavjud. Negaki, u tug'ilganida onasiga musulmon bo'lmasa, emmasligini, uylanganida esa xotinlariga musulmon bo'lishlari kerakligini aytadi. Asarda qayd qilinishicha, avvalgi ikki xotini bu shartga ko'nishmagan, uchinchi esa imontalab bo'lgani uchun bajonidil rozi bo'ladi.

Yozuvchining "Ayriliq ostonasi" romani O'g'uzxonni bag'ishlangan boshqa asarlardan birmuncha farq qiladi. Voqealar rivoji ham biroq boshqacharoq tarzda bayon etiladi. Bunda Mode xoqon nomi bilan mashhur bo'lgan O'g'uzxon Kuntangriga sig'inuvchi shomonlar vakili hisoblanadi. Uning shomon ekanligi asarning juda ko'p o'rinlarida ko'rsatilgan. Ma'lumki, turkiylar bo'riga alohida hurmat bilan qarashgan. O'g'uzxonning bayrog'ida ham bo'ringa boshi tasviri tushirilgan. Jo'ra Fozil asar voqealari ishonchli chiqishi uchun mazkur jihatlarga ham e'tibor qaratgan. "Men dushman oldida bunchalar past tushishdan ko'ra jang maydonida mardona o'limni afzal bilgayman. Toki, qizil qonim bo'ri boshli muqaddas bayrog'imni alvon rangga bo'yasin!" Mazkur

parcha O'g'uzxonning kuchli iroda sohibi, mardligini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur ishda Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" romanida tarixiy voqealar aks ettirilgan bo'lib, unda qiyosiy-tarixiy, struktur metodlardan foydalanilgan.

Natijalar. Mazkur roman anchagina katta hajmda bo'lib, u muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Romanning muqaddimasida turkiy qavmlarning yo'q bo'lib ketishigacha olib keladigan dahshatli qirg'in voqeasi aks ettirilgan. Xitoyning minglab askarlari so'nggi turkiy qabila aholisini shafqatsizlarcha o'ldiradi. Askarlar to'g'iz yoshli bola – Ilmoqning qo'l-oyoqlarini chopib tashlashlari ularning aslida kimligini ko'rsatib turibdi. Muqaddimada O'g'uzxon yashagan davr va undan ancha keyingi yillardagi turkiy xalqlarning ahvoli yoritilgan.

Asarning birinchi qismi to'rt fasldan iborat bo'lib, ular o'z sarlavhasiga ega. Unda O'g'uzxonning bolaligi, dushman yurtida asir sifatida yashashi, u yerdan qochib yurtiga kelishi, otasi bilan orasidagi bo'lib o'tgan nizolar va oxirida Tuman Tangriqutning fojiali o'limi voqealari bayon etilgan. O'g'uzxonning dushman yurtiga garov tariqasida yuborilishi, xoqon Tuman Ulug' Yovchilar yurtiga hujum qilsa, o'g'li Botur o'ldirilib yuborilishi ayonligini bilsa-da, u mamlakatga qarshi jangga kirishi – yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy to'qimadir. Biroq mazkur voqea asarning oxirigacha, tizimli yaratilishida, voqealar rivojining aniq hamda ishonarli chiqishida muhim rol o'ynagan.

Romanning ikkinchi qismi bevosida O'g'uzxonning jangovor faoliyati, ulkan saltanat tuzishdagi mardonavor harakatlari, buning natijasida tortgan azoblariga bag'ishlanadi. Mazkur qism besh fasldan iborat va ular voqealar rivojiga mos tarzda nomlangan. Ushbu qism asarning asosiy qismi hisoblanadi. Shu qismda boshqa qismlarga nisbatan O'g'uzxonning siymosi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Asarning uchinchi qismi O'g'uzxonning keksayishi, darvesh bilan hayot halsafasi haqidagi bo'lib o'tgan suhbatlari, o'g'illari haqidadir. Mazkur qism to'rt fasldan iborat bo'lib, unda asosan O'g'uzxonning o'g'illarihaqida fikr yuritilgan.

O'g'uzxon bolalik paytlaridanoq harbiy ilmlarga juda qiziqqan. Mazkur obraz kuchli iroda sohibi sifatida talqin etiladi. Otasi Tuman Tangriqut o'g'lini yoqtirmaganligi sababli qo'shni mamlakatga garov tariqasida yuboradi. Dovyurak yigit dushman mamlakatdan sog'omon qaytib keladi. Unga oddiy dehqonning Rajo ismli qizi ko'mak beradi.

Mazkur asarda ota va o'g'il orasida bo'ladigan nizolar batafsil, aniq bayon qilingan. Tumanning o'z o'g'lini boshqa mamlakatga garov tariqasida yuborishi ota-o'g'il orasidagi nizoning kelib chiqishiga sabab bo'lgandi, Rajoning asirlikdan ozod qilinmaganligi bu nizoni yanada kuchaytirdi. O'g'uzxonning ikkinchi xotini – Kuntug'di xoqonga o'g'li unga qarshi uchushga tayyorlanayotganligi haqidagi yolg'on xabarni yetkazishi oxir-oqibat nizoning katta jangga aylanishiga olib keldi. "Ha, ha, sen Vatanning, xalqing uchun qurbon bo'lishing mumkin edi! Sening xaloskoring katta hurmatga loyiq", – deydi xoqon. Otasining tovushidagi loqayd, beparvo ohang shahzodaning badanini jimirlatib yubordi. Bu ohang ular bir-birlaridan naqadar yiroq, begona ekanliklarini ko'rsatib turardi[2]. Mazkur parchadan ko'rinib turibdiki, ota-o'g'il munosabatlari yaxshi bo'lmagan.

Tuman ukasi Kuzxonning qizi – Saqitni, undan so'ng keyingi ukasi Kunxonning qizi – Kumtug'dini O'g'uzxonning noroziligiga qaramay, nikohlab beradi. Otaning maqsadi o'g'lini taxtdan uzoqroq saqlash edi. Kuntug'dining O'g'uzxondan o'ch olish maqsadida uyushtirgan fitnasi ota-o'g'ilning xuddi dushmanlardek ayovsiz jangga kirishiga sabab bo'ladi. Mazkur jangda Tuman xoqon mag'lubiyatga uchradi, hamda o'zi ham halok bo'ldi. O'g'uzxon otasining roziligi bilan otliq qo'shin tuzgan edi. Bu qo'shin Og'uzxonga

barcha janglarda g'alabani qo'lga kiritishida yordam bergan. U otasining o'rniga taxtga o'tirgach, bazm uyushtiradi. Bazm haqida tarixnavis Hofiz Tanish Buxoriy shunday yozadi: "Osmon xumxona-yu, dengiz kosa bo'lganida ham, bazmdagi sharbatlar unga sig'mas edi. Baliq, ot, qo'y, qoramol go'shtidan shunchalar ko'p taom tayyorlanganki, uning xirmoni tog'-u adirlarga barobar kelgan..."[2]. Yozuvchining fikricha, ana shu misli ko'rilmagan bazm yetti iqlimda yangi, saodatli, ayni paytda qattiqo'l va qaysar hukmdor ulkan saltanat taxtiga chiqib, jahonga yuz tutganidan dalolat berardi. O'g'uzxon buyuk imperiya asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan.

U xoqon bo'lsa-da, taxt haqida ijobiy fikrda bo'lmagan, quyida keltirilgan fikrlari orqali uning hayot falsafasini bilib olish mumkin. "Hukmdorlik nima o'zi? Ilmmi, san'atmi yoinki tug'ma iqtidormi? Nahot, har bir saltanat ildizlari qon bilan sug'orilishi darkor bo'lsa... Otam hayotiga zomin bo'lgan, unga vafo qilmagan taxt menga vafo qilgaymi?"[2,62]

Asarning ba'zi o'rinlarida yuqoridagi kabi falsafiy fikrlar keltirilganki, natijada romanning g'oyaviy-badiiy qiymati yanada ortgan. Quyida keltirilgan fikrlarda inson zotigagina xos bo'lgan xarakter-xususiyatlar mahorat bilan aks ettirilgan: "Ey inson, sen aql-zakovatda qanchalar yuksak bo'lsang, tubanlik, xiyonat, makr-hiylada ham shu qadar buyuksan!". Mazkur parcha O'g'uzxonning xayolidan kechgan fikrlari bo'lib, undagi fikr butun insoniyatga dahldor.

Yozuvchi O'g'uzxonning ichki ma'naviy olami hamda jismoniy kuch-qudratini aks ettirishga alohida urg'u berganligi ayni haqiqat. U mard, shijoatli, vatanparvar, ona yurti sarhadlarini kengaytirish orqali kelajak avlod istiqbolini o'ylaydigan, kechirimli shaxs sifatida tavsiflanadi. U dushmanlari yuragiga g'ulg'ula solib, o'zining g'alabasini ta'minlaydigan ovozi o'q-yoy ixtiro qilgan. O'g'uzxon faqatgina shavkatli sarkarda emas, balki buyuk davlar arbobi ham edi. U fath etilgan o'lkalarni yolg'iz qilish kuchi bilan emas, aql-zakovat, oqilona siyosat bilan iroda qilardi. Uning kechirimliliqi quyidagi voqealarda namoyon bo'ladi: unga xiyonat qilgan har ikkala xotinining xoiligini kechiradi, mag'lub bo'lgan Tunjut mamlakatini vayron qilmaydi, o'z vazifasini bajarmay, xoqoniga qarshi chiqqan Bilgaxonni avf etadi.

Adib uning farzandlariga bo'lgan otalik mehrini ham ko'rsatishga harakat qilgan. "Ota o'g'lining keng yelkalari, pahlavon kelbatiga zavqlanib boqar, unda o'zining navqironlik yillari shijoatini, sha'n-shukuhini ko'rardi. Juda ko'p saroy fitnalarini boshidan kechirib, ularning jabrini hamon tortayotgan ota o'g'lini ham shu g'avg'olar kutayotganligini o'ylaganida, juda diltang bo'lar, shunday paytlarda u o'g'li Kunxonni yoniga chaqirib, yurt tutish odobi haqida so'z ochar, pand-nasihat qilardi"[2]. Og'uzxon adolatli bo'lganligi uning quyidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo'ladi: "Oqilona siyosat, kuchli lashkar va mustahkam iqtisod xoqonlik kelajaini belgilaydi... Saltanatni ushlab turguvchi ustunlardan yana biri – adolatdur"[2]. O'g'uzxon adolat ustuvorligiga qattiq rioya etgan. Uning taxt vorisi Kunxon uchun bu o'mak bo'lishi tabiiy hol, albatta.

Adib obrazlarning shaxsiy jihatlarini yoritishda bir yoqlamalikdan yiroqlashadi. U Og'uzxonning ijobiy xarakter-xususiyatlari bilan bir qatorda, uning insonlarga xos bo'lgan ba'zi salbiy jihatlarini ham asarda yoritib beradi. Xususan, uning Xan podshohiga yuborgan maktubida kalondumog'lik alomatlari mavjud edi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, O'g'uzxon yurt osoyishtaligi, mustaqilligi yo'lida harakat qilganida hech kimni hatto yaqinlarini ham ayamagan. Tarixchi olim Qahramon Rajabovning fikriga ko'ra, miloddan avvalgi 240-210-yillarda hukmronlik qilgan Tuman Tangriqut hamda O'g'uzxon orasida 210-yilda jiddatli jang bo'lib o'tadi. Bu

jangda O'g'uzxon g'olib bo'lib, vafot etgan otasining o'rniga taxtga o'tiradi hamda yangi davlat barpo etadi. Tuman Tangriqutga o'z o'g'lining qarshi chiqishiga asosiy sabab hokimiyatni egallab olish emas, balki tashqi dushman ta'siriga berilib el-ulus manfaati va xalq tashvishini unutib qo'ygan keksa hukmdorni oradan ko'tarish edi[1].

Boshqa tarixiy manbalarda, xususan, Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami" nomli kitobida O'g'uzxonning taxtga o'tirishi biroz boshqacharoq tarzda bayon qilingan. "O'g'uzxon ukasi taxtga o'tirishidan qo'rqib, ov paytida otasini, o'gay onasi hamda aka-ukalarini o'ldirib o'zini xoqon deb e'lon qiladi".

Jo'ra Fozil o'z otasiga qarshi jang qilishga majbur bo'lgan O'g'uzxon ruhiyatini, ichki ma'naviy olamini yoritishga, uning tuyg'ularini aks ettirishga alohida e'tibor qaratadi. Ota va farzand o'rtasida jang muqarrar bo'lib turgan bir paytda O'g'uzxon juda bezotalanardi. "Xo'sh, qilichimni tashlab, otam poyiga yiqilsam, u meni kechirarmikan? Yo'q, aslo kechirmagay. U g'azab otiga mingach, kechirishga qodir

emas... Agar uning yuragida menga nisbatan zarracha mehr bo'lganida, g'animlari saroyiga garov tariqasida yubormas edi-ku!.. Bu sharmandali jangdan o'zga choram bor mening? Nahot, qismatinga padarkushlik bitilgan bo'lsa?.."[2] Mazkur parcha O'g'uzxonning ko'nglidan kechayotgan fikrlari bo'lib, bu o'ylar uning otasiga qarshi jang qilishni istamaganini bildiradi. Aybi yo'q bo'lsa-da, jangni to'xtatish uchun otasidan kechirim so'rashga ham tayyor edi, zero, O'g'uzxon Kuntug'di aytganidek, shakkoklik botqog'iga botmagan edi. Oradan qancha vaqt o'tsa-da, padarkushlik tamg'asini bosgan o'sha qonli jang ta'siridan, ta'qibidan Og'uzxon xalos bo'lolmagani asarda o'z ifodasini topgan.

Xulosa. Jo'ra Fozil ijodi haqida fikr yuritilganda aytish kerakki, yozuvchi tarixiy asarlari o'zbek adabiyotshunosligida juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy asarlarda notinch, ziddiyatli davrlar o'zining butun drammatizmi bilan tasvirlangan. Adib asarlarining barchasida ramziylik mavjud. Chunki har bir davrning o'z muammosi, fojiasi bo'ladi. Inson faqatgina to'g'ri yo'lni tanlay bilmog'i, o'zidan, o'zligidan kechmasligi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Rajabov. Q. "Turon tarixining badiiy kecmishi". Jo'ra Fozil. Ayriqliq ostonasi. Tarixiy roman. Toshkent: "Sharq", 2006. – B. 286-287.
2. Fozilov J. Ayriqliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: –T.: Sharq, 2006.
3. Latipova S. TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING "AYRILIQ OSTONASI" ROMANI ASOSIDA) //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 58-61.
4. Latipova S. JO 'RA FOZIL IJODIDA XALQ MAQOLLARINING O 'RNI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 18. – C. 92-96.
5. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING "O 'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.
6. Рустамова Г. ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон кизи Бухоро давлат университети таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021.
7. Jo'rayeva L. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 124-127.
8. Avazova N., Jalilova O. ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 20-24.
9. Fozilov J. Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni: Roman, hikoyalar: – T.: Sharq, 2015. – 320 b
10. Jabborova M. MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 48-52.